

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

3.2022

**научно-теоретический методический журнал
Издаётся с 2001 года**

Urganch – 2022

YO‘LDOSHEV Ro‘zimboy, bosh muharrir, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY‘ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
ABDULLAYEV Ikrom, biologiya fanlari doktori, professor (Xorazm Ma‘mun akademiyasi),
ABDULLAYEV Ilyos, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),
ABDULLAYEV O‘tkir, tarix fanlari doktori (UrDU),
ALEUOV Userbay, pedagogika fanlari doktori, professor (Nukus davlat Pedagogika instituti),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori (UrDU),
DO‘SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),
IBRAGIMOV Zair, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, AQSH),
IMOMQULOV Sevdior, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),
JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, mas‘ul kotib, UrDU),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OLLAMOV Yarash, yuridik fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xorazm viloyatidagi Xalq qabulxonasi bosh mutaxassisi),
OTAMURODOV Sa‘dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
PRIMOV Azamat, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RO‘ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O‘zMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O‘zMU),
SAGDULLAYEV Anatoliy, tarix fanlari doktori, akademik (O‘zMU),
SALAYEV San‘atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SALAYEVA Muxabbat Soburovna, pedagogika fanlari doktori (UrDU),
SATIPOV G‘oipnazar, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (bosh muharrir o‘rinbosari, UrDU),
YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O‘zDJTU),
O‘ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori (UrDU),
O‘ROZBOYEV G‘ayrat, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
G‘AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI•2022 3(177)**

MUASSIS: Urganch davlat universiteti•Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro‘yxatdan o‘tgan•**GUVOHNOMA № 1131.**

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA

Жураева Умида Юнусалиевна. Функция карлемана для полигармонических функций для некоторых областей в R^m	3
Шаропов Уткиржон Баходирович. Образование внедренных дефектов на поверхности кристаллов Si(111) и SiOx при распылении ионами.....	7
Эшпўлатов Бобир Худойбердиевич. Распространение собственных волн в двухслойной в языкоупругой среде.....	12
Seytov Shavkat Jumaboyevich. Dynamics of the Populations Depend on Previous Two Steps.....	17
Safarbayeva Nigora Mustafayevna. Function in Mathematics.....	22

FALSAFA

Jumaniyozova Sabohat Bekturdievna. Falsafiy ta'limotlarda antrop tamoyilning talqinlari tasnifi.....	24
Norova Malika Fayzulloevna. Sayfiddin Boxarziyning bilishga oid qarashlari.....	27
Турсунов Лочин Эркинович. Ёшларда фуқаролик маданиятини шакллантириш хусусиятлари.....	32
Абдукаримова Гулчехра Баратовна. Герентологиянинг ижтимоий-фалсафий хусусиятлари.....	37

TILSHUNOSLIK

Ашурова Зулхумор Шодиевна. Европа ва россия тилшунослигида лингвопоэтика масалаларининг тадқиқ этилиши.....	41
Kalandarov Aybek Ruzimbayevich, Bekchanova Xushbaroy Jumanazarovna. Ingliz va o'zbek tillarida stativlik kategoriyasining o'rganilishi.....	44
Уралов Азамат Бегнарович. Морфологик бирликларнинг пайдо бўлиш йўллари, бойиш манбалари.....	47
Исакова Гўзалхон Неъматовна. Қанотли сўзларда стилистик дистрибуция ҳодисаси.....	52

ADABIYOTSHUNOSLIK

Норов Отажон. Исломий ғоялар мотиви ва ҳадисларнинг шеърый талқини.....	55
Юлдашева Дилноза Бекмуродовна. Дастхатлар – эпистоляр жанрнинг бир кўриниши.....	59
Rasulova Gulbahor. Ayris Merdokning "Tuzoqda" romanida badiiy nutq masalasi.....	62
Nizomova Shoxista Shodievna. Zamonaviy she'riyatda olov analoglarining obrazlantirilishi.....	65
Dusanova Tozagul Rasulovna. "Mahbub ul-qulub" asarining ifroniy mohiyati va badiiyati.....	68

PEDAGOGIKA

Madaminova Kamila Nuredinova, Yaxshimuratov Murod Rajapboy o'gli, Ataulayev Zokir Maqsudovich, Dushamov Dilshod Azadovich. "Pirrol va uning hosilalari" mavzusini o'qitishda interfaol metodlarning qo'llanilishi.....	73
Allaberganova Muyassar Rimberganovna, Olloberganova Muyassar Davlatboy qizi, Ravshanqulov Abbos Ravshanqul o'g'li. Ta'limda iot ilovalarining roli.....	75
Xayitov Jonibek Xolboboyevich. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasi.....	78
Raximov Azad, Atajanov Sardorbek Ajdar o'g'li, Jumanova Moxira Zoirovna. "Bodring yetishtish agroteknologiyasi" mavzusida yangi pedagogik texnologiyalar asosida amaliy mashg'ulotlar o'tkazish.....	81
Xolmirzayeva Sayyora. O'zbek tili fanini o'qitishda idrok xaritasini qo'llash.....	83
Kadirova Feruza Xikmatullaevna. Ingliz tilini o'qitishda veb-texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklari.....	86
Muxammadiev Komil Burxonovich. Talabalar jismoniy tayyorgarlik darajasining o'sish dinamikasi.....	88
Ибрагимов Аъламжон Амриллоевич. Когнитив компетентлик – ўқитувчи узлуксиз касбий ривожланишининг бош омили.....	91
Турумбетова Замира Юсупбаевна. Ёшларни мактабдан ташқари машғулотлар орқали ижтимоийлаштиришни ташкил этиш бўйича хорижий тажрибаларга таяниш.....	97

Туракулов Иброхим Равшанович, Турсункулов Элмурод Аззамкулович, Туракулова Феруза Мамадоли кизи. Талаба-қизларнинг жисмоний тайёргарлигини оширишда ноанъанавий машқлардан фойдаланиш услубияти.....	101
Usmonova Sohiba Toyir qizi. Fizika darslarida o‘quvchilar bilimini oshirishda va nazorat qilishda Learningapps dasturidan foydalanish.....	105
Муסיнова Зебо Турабовна. Фразеология в курсе инославянского языка, изучаемого на филологических факультетах университетов.....	108
Maxmudova Malaxat. «Доира дарс» – как система хореографического профессионального образования.....	111
Собинова Лайло Бахромовна. Методика развития физической подготовки студенток с ограниченными возможностями при помощи специальных средств физической культуры.....	113
Базарова Шохида Аширкуловна, Алимбаева Ирода Маруфжановна. Особенности развития творческой активности учащихся в психолого-педагогическом аспекте.....	116
Исроилова Дилдора Мухторовна. Специфика межкультурного диалога в контексте изучения профессионально-коммуникативной компетенции студентов-инженеров.....	119
Yo‘ldosheva Sevara Alisher qizi. The Importance of Questioning in Teaching.....	123
Xakimova Laziza Yusupovna. Inclusive Teaching.....	125
Abdieva Sayida Irisovna. Ways to Improve Education Quality in Uzbekistan.....	128
Nosirova Dilfuza Mystafoyevna. Use of Modern Innovative Technologies and Modern Trends in Foreign Language Teaching.....	130

ILMIY AXBOROT

Саттаров Уткир Уразалиевич. Янги авлод дарсликларни замонавий кўникма ва малакалар билан мазмунан бойитиш усуллари.....	133
Choriev Jo‘raqul Gafforovich. Talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	137
Уринбоев Дилмурод Тура ўғли. Ёшлар ҳукукий маданиятининг функционал хусусиятлари ва турлари.....	140
Mansurov Muzaffarjon Sharifjon o‘g‘li. Umumta’lim maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishda psixologning o‘rni va roli.....	145
Adamboyeva Nafisa Qodirberganovna. Ingliz va o‘zbek tillarida xushmuomalalik kategoriyasi masalasi.....	149
Давлетов Камараддин Курбонбоевич. Қўрқув концепти – француз ва ўзбек лисоний тафаккурида.....	155
Норбоева Дилафрўз Жумакуловна. Ўзбек ва рус тилларида бошқарув психологиясига оид терминларининг қиёсий-типологик таҳлили.....	158
Allamberganova Nigora Gulmurzayevna. O‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi “nutq” ma’noli frazemalarda sinonimiya.....	161
Комилова Мукаррам Қобилжоновна. Рус ва ўзбек тиллари инвестиция ва кредит терминларининг қиёсий-типологик таҳлиliga доир мулоҳазалар.....	165
Mamatova Dilshoda Mashrab qizi. Bing Sin, Ding Lin, Syao Hong, Chjang Ayling asarlarida sevgi va dard qo‘shigi.....	167
G‘ovsidinov Ma’ruf Nasridinovich. Jomiyning pantiestik qarashlari.....	171
Iskanova Nasiba Parmonovna. Badiiy asar tarjimasida tillarning o‘ziga xos xususiyatlari.....	173
Сандова Камола Усканбаевна. Особенности семейно-воспитательных культурных традиций в японской философской мысли.....	176
Чернова Татьяна Алексеевна. Жанровое своеобразие русского и узбекского фольклора.....	181
Сиразетдинова Лилия Алимджановна. Процессы заимствования слов компьютерной лексики в русском языке.....	185
Yusupova Zamira Zaripovna. Benefits of the Subject in Psychology to Programmers in the Modern Information Age.....	187
Zaripova Ra’no. Lesya Ukrainka’s Works in Uzbek.....	189
Nushtaeva Ozoda Xasilovna, Bayjonova Lyudmila Egamberdiyevna. Features and Areas of Application of Plastic Optical Fiber.....	193
Ergasheva Nigora. Grammatical and Lexical Identity of English Speaking Varieties.....	195

Ёш тадқиқотчи, ҚаршиДУ психология бўлимининг битирувчиси Темурбек Поёнов бир кутубхонада – таниқли олим ва ёзувчи Поён Равшановнинг шахсий кутубхонасида ярим аср давомида тўпланган беш юздан ортиқ дастхат матни ёзилиб туҳфа этилган китоблардаги ёзувларни таққослаб, бирор муаллифнинг ёзуви иккинчисини такрорлаган, ўхшаши бўлган ҳолатларни учратганмаганини алоҳида таъкидлайди.¹ Ўтиборли томони шундаки, тадқиқотчи ўз китобида тўпланган дастхат матнларини “Самимият”, “Оқ тилаклар”, “Ўтироф”, “Илмий ишлардаги дастхатлар (авторефератлар)” деган қисмларга ажратган ҳолда тўла келтиради.² Бундай бой дастхатлар матни келгусида бошқа манбаларда мавжуд худди шундай дастхатлар билан қиёсий-типологик жиҳатдан тадқиқ этишда муҳим аҳамият касб этади.

Умуман олганда, дастхат матнларини ўрганиш, уларни мантиқ ва маъно жиҳатдан талқин ҳамда таҳлил қилиш, аслида, юксак билим эгаларининг, таниқли олиму ижодкорларнинг ҳаёт йўлини, дунёқарашини, ўз замондошларига бўлган муносабатини, шу орқали уларнинг ватанимиз илм-фанида, ижодиётида тутган мавқеини аниқлашга катта ёрдам беради.

Rasulova Gulbahor Kerimbaevna (Toshkent To'qimachilik va yengil sanoat instituti o'qituvchisi)
AYRIS MERDOKNING “TUZOQDA” ROMANIDA BADIY NUTQ MASALASI

Annotatsiya. Maqolada ingliz yozuvchisi Ayris Merdokning ilk romani bo'lgan “Tuzoqda” romanidagi badiiy nuqt xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Bunda yozuvchi roviy-personaj nutqidan foydalanган bo'lib, bayon kompozitsiyasida dialog, monolog yoki boshqa personajlar nutqi kiritilganda bayon uslubida yuz beradigan o'zgarishlar ilmiy asoslangan.

Аннотация. В статье рассматриваются художественные особенности первого романа британской писательницы Айрис Мердока «Ловушка». В этом романе автор использует речь рассказчика-персонажа, а изменения, происходящие в стиле повествования при включении в повествовательную композицию диалога, монолога или речи других персонажей, имеют научное обоснование.

Annotation. The article deals with the artistic features of the first novel by the British writer Iris Murdoch “The Trap”. In this novel, the author uses the speech of the narrator-character, and the changes that occur in the style of narration when a dialogue, monologue or speech of other characters is included in the narrative composition have a scientific justification.

Kalit so'zlar: roman, kompozitsiya, obraz, nutq, roviy nutqi, roviy-personaj, dialogik nutq, monologik nutq, bayoniy nutq tabiati.

Ключевые слова: роман, композиция, образ, речь, речь рассказчика, персонаж-рассказчик, диалогическая речь, монологическая речь, характер повествовательной речи.

Key words: novel, composition, image, speech, narrator's speech, character-narrator, dialogical speech, monologue speech, nature of narrative speech.

Badiiy asar uchun eng muhimi, uning tili (boshqacha aytganda, badiiy nutq) bo'lib, bu shunchaki til emas. Balki badiiy qayta ishlangan nutq birliklarining majmui sanaladi. «So'zning lug'aviy ma'nosi badiiy nuqtda oddiy nuqtda, umuman, mavjud bo'lmagan ma'lum bog'lovchi vositaga, spetsifik xususiyatga, badiiy ahamiyatga ega bo'ladi».³ Shu ma'noda so'z universallik kasb eta boshlaydi. Romanga jalb etilgan shunday so'zlar borki, ular oddiy nuqtda bitta ma'noni anglatishi mumkin, xolos. Ammo badiiy asarda, jumladan, biz tahlil etayotgan romanda ko'p ma'nolik ega bo'ladi. Bunda o'sha so'z lug'aviy ma'nosi yonida ko'chma ma'nodagi yangi vazifani yoki yangi badiiy-estetik yuklamani olishi mumkin. Chunki badiiy nutq tabiatini teran bilgan ijodkorgina yetuk badiiy asar yarata oladi.

Badiiy asar tilini tadqiq qilish jarayoni poetika masalalari ichida eng murakkablaridan sanalib, u yoki bu asar tilini o'rganish jarayonida istaysizmi, yo'qmi, asardagi obrazlar, personajlar nutqi orqali yoritilgan ruhiyat, psixologiya, asar sujeti, kompozitsiya, mavzu va g'oya birligi kabi masalalarga oid detallar ko'rinadi. Chunki bayon qilingan kichik epizodda ham asardagi mavzu va g'oya yashirin bo'ladi. Garchi olingan epizod peyzaj yoki monolog bo'lsa-da, unda keng ma'noda jamiyat tasviri, tor ma'noda esa biror personajning portreti chizilgan bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, boshqa shunday unsurlar bilan

¹ Поёнов Т. Дастхат ва руҳият (тадқиқот). Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2014, 29-бет.

² Шу манба. 79 – 219-бетлар.

³ Теория литературы. Том 1. Литература. Москва, ИМЛИ имени М.Горького РАН, 2005, с. 293.

yaxlitlikda asar kompozitsiyasini shakllantiradi. Kompozitsiyada esa, albatta, obraz va uning nutqi ham ishtirok etadi. Shu ma'noda har qanday badiiy asar asosini birinchi galda uning tili, asardagi turli nutq shakllari tashkil etadi.

Aytish kerakki, birinchi galda asardagi voqealarni so'zlovchi shaxs, muallif nutqi, roviy ovozi yoki roviy-personaj haqida chuqurroq bilish lozimi bo'ladi. Demak, nutq voqealarni gapirib beruvchi shaxsni bo'lsa, unda bunday nutq katta badiiy-estetik vazifani bajaradi. Chunki bayon qilinayotgan voqea, garchi real hayotdan olingan bo'lsa-da, u so'zlovchi, aniqrog'i, muallif ichki olamida badiiy qayta ishlanib, so'ngra ma'lum shaklga tushadi. Bu esa endi bunday nutq shaklini oddiy til hodisasi emas, balki estetik kategoriya sifatida olishni taqozo etadi. Zero, «badiiy til (jumladan, nuqt ham – R.G.) faqat shakl yaratish vositasi emas, balki shakl bilan mazmun birligini ta'minlovchi vosita hamdir. Shu sababli badiiy til hamisha mazmun yaratishning ham asosiy qurollaridan biri bo'lib xizmat qiladi».¹ Shuning uchun badiiy asar tilini o'rganish, undagi qahramonlar nutqini tahlil qilish orqali asar badiiy xususiyatini ham ochish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Avvalroq ta'kidlaganimizdek, «Tuzoqda» romanida voqealar roviy-personaj tilidan bayon qilinadi. Lekin ana shu roviy-personaj nutqi o'zining mazmuni jihatidan keskin burilishlarga egaligi, roviyning borliqqa, obrazlarga va vaziyatga bergan bahosi sifatida ham asar kompozitsiyasida asosiy vazifani bajaradi. Shuning uchun mazkur romandagi roviy-personaj nutqini o'rganish asar badiiy xususiyatlarini tadqiq etishda muhim sanaladi. Zero, «Badiiy proza, u kundalik, xat, xotira va hokazolar bo'ladimi, baribir, bayonchilikni tashkil etishning har qanday shaklida ham ma'lum shaxs tilidan bayon qilishga og'ish xarakterli sanaladi».² Lekin masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Garchi voqealar birinchi qahramon tilidan bayon qilinsa-da, sujet voqealariga jalb etilgan peronajlar o'zlariga xos nutqiy jest, mimika va boshqa jihatlarni saqlab qolishadi. Bunda roviy-personaj boshqa personajlarning o'ziga xos tomonlari bilan bayon qilishga majbur bo'ladi. Agar yozuvchi shunday qilmasa, obrazlardagi xarakterli tomonlar ochilmaydi. Badiiy til jozibasi xiralashadi. Buning uchun roviy-personaj asardagi qahramonlarni o'zlarining olamida yaratadi. Bayon pozitsiyasida qisman o'z fikrini ustun qo'ysa-da, boshqa personaj ichki olami, ruhiyati, portretini ham nisbatan to'laroq, batafsilroq tasvirlashga o'tadi. Buni quyidagi parchada Ayris Myordok tasvirlagan Hyugo obrazi misolida kuzatish mumkin:

“Hugo found this very puzzling, as indeed he found everything very puzzling.

“There's something fishy about describing people's feelings” – said Hugo. “All these descriptions are so dramatic”.

“What's wrong with that?” I said.

“Only”, said Hugo, –That it means that things are falsified from the start. If I say afterwards that I felt such and such, say that I felt “apprehensive” – well, this just isn't true”.

“What do you mean?” I asked.

“I didn't feel this” –said Hugo. “I didn't feel anything of that kind at the time at all. This is just something I say afterwards”.

“But suppose I try hard to be accurate”. I said.

“One can't be”, –said Hugo. “The only hope is to avoid saying it. As soon as I start to describe, I'm done for. Try describing anything, our conversation for instance, and see how absolutely instinctively you”.

“Touch it up?” I suggested.

“It's deeper than that” – said Hugo. “The language just won't let you present it as it really was”.

“Suppose then”, – I said, “That one were offering the description at the time”.

“But don't you see, – said Hugo, “That just gives the thing away. One couldn't give such a description at the time without seeing that it was untrue. All one could say at the time would be perhaps something about one's heart beating”.³

(Xyugo bu (umuman olganda, qolgan barchasi)ning tagiga yetish oson deb hisoblardi.

– Insoniy hissiyotlarni allanechuk tasvirlash odobsizlik, – dedi Hyugo. Bunday tasvirlar shunchalik ta'sirliki...

–Buning nimasi yomon? – so'radim.

¹ Kollektiv. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik, 1-tom, adabiy asar. T., “Fan”, 1978, 223-bet. www.ziyouz.com kutubxonasi.

² Тимофеев Л.И. Проблемы теории литературы. Москва, гос. уч.-педиздат, 1955, с. 88.

³ Iris Murdoch. Under the net. First published in 1954, p. 45.

– Boshidan yolgʻon aralashgani bilan. Agar men boʻlib oʻtgan voqeani gapirsam, mana buni va mana buni his qildim desam, meni hissiyot boshqarmoqda degan boʻlaman. Bu haqiqatga zid.

–Qanday qilib?

–Hali meni buni boshdan kechirmadim. Oʻsha paytda bunga oʻxshash narsani his etmaganman. Buni men faqat keyin gapiryapman.

–Agar yanada aniqroq ifodalasha harakat qilinsa-chi?

–Buning iloji yoʻq, – dedi Hyugo. – Yagona yoʻl – sukut saqlash. Biror narsani bayon qilishni boshlash bilan men oʻzimni yoʻqotaman. Mana bizning shu suhbatimiznimdan nimadir bayon qilishga harakat qilib koʻring va koʻrsinmi, gʻayritabiiy ravishda...

–Unga qayta bezak bera boshlaymanmi? – ilib ketdim.

–Bu yerda barchasi jiddiy. Tilning oʻzi sizga voqeani qanday boʻlsa, shunday bayon qilishga yoʻl bermaydi.

–Agar uni oʻsha zahoti, birdan bayon qilinsa-chi?

– Nega tushunmaysiz? – dedi Hyugo, – shunday yolgʻon yuzaga chiqadi-ku! Bir paytning oʻzida uning toʻgʻri yoki notoʻgʻriligini anglamay bayon qilish xato. Bunday paytda, yaxshisi, yuragingiz qanday urgani haqida gapirish mumkin.

Parchadan maʼlumki, roviy-personaj oʻzi hurmat qiladigan faylasuf Hyugo bilan voqelikni tasvirlash mavzusida bahsga kirishadi. Bunda Hyugoning faylasuf olim, voqelikni teran tushunuvchi odam ekanligi va qatʼiy xarakterga egaligi ham koʻzga tashlanadi. Shu yoʻl bilan roviy-personaj nutqida boshqa personaj tasviri nisbatan yorqinroq ifodalanadi. Rovi-y-personaj nutqining shu yerida bayon kompozitsiyasiga dialogning kiritilgani bayon tabiatining ham oʻzgarishiga asos boʻlgan. Natijada roviy-personaj bu yerda roman kompozitsiyasini tashkil etuvchi vazifasida ham koʻzga tashlanadi. Badiiy asarlarda voqeahodisalarning bunday usulda bayon qilinishi asar gʻoyaviy-badiiy mohiyatini ham koʻrsatuvchi muhim omil sanaladi.

Aslida, keltirilgan suhbat badiiy tafakkur tarzi haqida mulohaza yurituvchi olim va shogird oʻrtasida boʻlib, u oʻz mazmuni va qurilishiga koʻra, Platonning mashhur “Davlat” nomli asarini yodga soladi. Ayniqsa, unda ham ustoz va shogird adabiyot masalalari haqida fikr yuritganda shunday suhbatlar boʻlgan. Demak, muallif mazkur nutq yordamida qadim yunon olimlari anʼanasini davom ettirgan. Faqat re-marka, replikalar orasida voqea zamonaviy dunyoda yuz berayotgani koʻrinadi.

Boshqa bir oʻrinda roviy-personajning nutqi orqali uning oʻzi uchun sevimli boʻlgan kitobini qayta topganda qanday quvongani va shu yoʻl bilan uning ichki olami badiiy ifodasini topgan: “Oradan ancha vaqt oʻtgach, keyingi xonadagi oʻtirgancha, oldimga qogʻozlarni yoyib, kitob javonining quyi qavatidagi kitoblarni kuzatar edim. Javon ustiga Drezden va Vuster chinnisidan yasalgan odam haykalchalar terib qoʻyilgan edi. Men ularni birma-bir kuzatib chiqdim. Keyin sekinga qaytadan yuqori polkadagi kitoblarga koʻz yugurtira boshladim va toʻsatdan butun muskullarim yigʻilib, tok ungandek oʻrimdan sakrab turib ketdim. Qoʻlimdagi qogʻozlar har tomonga sochilib ketdi. Bir sakrab javon oldiga keldim. Uning oʻrtasida “Sukut saqlovchi odam” kitobining bir nusxasi turardi! Men bu kitobni koʻp yildan beri koʻrmaganimni eʼtirof etdim. Uning muqovasi ustidagi qogʻozi ham saqlanib qolgandi. Dastlab, unga nafrat bilan qaradim. Oʻzimga arzimasa boʻlgan ijod namunasini qayta koʻrishdan nafratlanish kulgi ekanligini uqdirgancha, uni qoʻlimda qattiq qisib turar ekanman, qalbimdagi nafrat ilqlik, homiylik va qiziqish hissiyotlari tomon oʻzgarayotganini his etdim. Kitob javoni yoniga, polga chordona qurgancha oʻtirib kitobni ochdim”.

Mazkur parchada roviy-personaj uzoq izlagan, qachonlardik sevib mutolaa qilgan qadrdon kitobini uchratganida qalbida tugʻilgan epik kechinmalarini bayon qiladi. Shu tasvirda qahramon qalbida kitobga mehr-muhabbat qanchalik katta boʻlganini, bu jarayon uni oʻzini unutgancha “qogʻozlarini sochib”, “chaqmoq urgandek sakrashi” kabi badiiy tasviriy iboralarida ochib berilgan. Demak, bu yerda personajning psixofilogik vaziyati, asardagi voqealar oqimidagi sokinlikdan keyingi ruhiy quvonch ifodalangan. Natijada sujet kompozitsiyasida yana bir joʻshqin voqea ifodasini topadi.

Yuqoridagi mulohazalardan koʻrinadiki, badiiy asar nutqi oʻziga xos murakkab hodisa boʻlib, bu yerda muallifning bosh qahramon roviy kabi vazifalardagi oʻrni koʻrinadi. Bu esa roman tilidagi hissiy-uslubiy xususiyatlarning avvaldan belgilanishini taʼminlagan. Shuning uchun romandagi har bir epizodik vaziyat, dialog yoki tavsivaviy nutq boʻladimi badiiy matn material sifatida yaxlit tizimga aylangan. Ularni umumiy tizimdan olib tashlash roviy nutqi yoxud personaj tavsifiga salbiy taʼsir etadi. Bu esa nutq masalasining roman kompozitsiyasi darajasida tahlil etishni talab qiladi.

Romandagi badiiy nutq kompozitsisi qurilishining boshqa romanlardan farq tomonlari, birinchi galda, roviy-persnaj nutqida namoyon bo'lgan. Bayon qiluvchining nutqida biz uysizlik motivi ortidan turli odamlar qurshovi va vaziyatlarga tushib qolgan Jeysning butun ichki olami hamda sujetga jalb etilgan turli toifa odamlarning roviy nutqidagi o'rnini ham tekshirishimiz mumkin. Xususan, Jeys uysizlik va pulsizlik muammosidan boshi qotib, nima qilarini bilmay sarson yurgan kunlarning birida, Medjnikida qolgan radiolasini olib, Tinkxem xonim do'konida yoki Devyniki olib borishni niyat qilib sobiq ijara uyiga boradi. To'g'ri, avval, qo'ng'iroq qiladi, hech kim go'shakni ko'tarmagach, uyda hech kim yo'q ekan, degan qarorga keladi va hali topishirilmagan kaliti bilan eshikni ochib uyga kiradi. U yerda esa bir qo'lida spirtli ichimlik ko'targan yoshi kattaroq erkak turardi. Aynan shu sahnada sujet markaziga ikki kishining konfliktiga oid epizodlar bayoni chiqadi. Rovi-personaj mazkur sahnani nisbatan batafsilroq va to'laroq bayon etadi. Biz Semmini birinchi marta aniq tasvirda kuzatar ekanmiz, uning xarakterida tavakkal o'yinlarga o'chlik borligini, boshqalarni ustidan hukm chiqarishga va odamlarni pul, boylik yordamida sotib olishga urinishni ham ko'ramiz. Bunda uning nutqiga turli badiiy ifodaviy vosita, stilistik usul va psixofiziologik belgilar ham jalb etiladiki, ularsiz roman tili o'z badiiyligini yo'qotgan bo'lar edi.

Xulosa sifatida aytish joizki, Ayris Myordokning "Tuzoqda" romanida voqelik roviy-personaj tili-dan bayon qilinadi. Natijada badiiy nutq subyektivlik kasb etadi. Shunday bo'lsa-da, roviy asardagi boshqa personajlar xarakterini, ichki olamini tasvirlashda dialogik va monologik nutq orqali ularning ham yorqin tasvirini ifodalashga harakat qiladi.

**Nizomova Shoxista Shodieva (BuxDU Maktabgacha va
boshlang'ich ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi)
ZAMONAVIY SHE'RIYATDA OLOV ANALOGLARINING OBRAZLANTIRILISHI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy she'riyatda olov analoglarining obrazlantirilishi haqida fikr yuritilgan. O'zbek she'riyati bir-biridan ajoyib ramzlarga, o'xshatishlarga boy. Ayniqsa, olov tasviri she'riyatimizda o'ziga xos obrazlilikni yaratgan. Misollar, asosan, zamonaviy she'riyatdan olingan.

Аннотация. Узбекская поэзия богата чудесными символами и аналогиями. В частности, образ воды и огня создал уникальные образы в нашей поэзии. В статье рассматривается представление изображений, связанных с водой и огнем, в современной поэзии. Приведены примеры в основном из современной поэзии.

Annotation. This article discusses the representation of fire analogues in modern poetry. Uzbek poetry is rich in wonderful symbols and analogies. In particular, the image of fire has created a unique imagery in our poetry. The examples are mostly taken from modern poetry.

Kalit so'zlar: zamonaviy she'riyat, obraz, badiiy obraz, an'ana, qadriyat.

Ключевые слова: современная поэзия, образ, художественный образ, традиция, значение.

Key words: modern poetry, image, artistic image, customs, value.

Guljamol Asqarova "meni tushunmaysiz" she'rida inson yuragini cho'g' to'la o'choqqa mengzasa, "men" she'rida "Onamga o'choqning boshi Vatandir!!!"

Xalq tilida o'choq so'zi o'rnida ba'zan qo'ra so'zi ham ishlatiladiki, shuning uchun ba'zi she'rlarda qo'raning obrazlantirilishi ko'zga tashlanadi. Bunga Guljamol Asqarovaning "Bayot" she'ridan olingan quyidagi misralarni misol qilish mumkin:

*Ko'hna Bayotlarim uyg'ondi manim,
Dilim qo'rasinda o't yondi manim,
Ko'nglim yomg'irlarda to'lg'ondi manim,
Bizim ko'ngillarda ko'shkimiz bordir.*

Xuddi shu shoironing "zerikish" nomli she'ridan olingan quyidagi misralarda ichida olov yoqish mumkin bo'lgan yana bir narsa – tandir so'zi tilga olingan:

*Qo'llarimga tillolardan zanjir soldim,
Vujudimni qorib erga tandir soldim.
Olov to'lyapti menga...*

"Osokada o'zbek choyxonasi (tadbirkor o'zbek yigitiga)" she'rida Osoka shahrining qoq o'rtasida bunyod etilgan o'zbek choyxonasi, unga tandir ham qurilib, ichiga gurillatib o't yoqilib, kichkina quyoshdek o'zbekning noni yopilgani-yu u yapon havosini qizdirib turgani haqida so'z yuritilgan.